

IJTIMOIIY FANLAR

VATANPARVARLIK G'UYALARIDAN TA'LIM- TARBIYA JARAYONIDA FOYDALANISHNING AMALIY AHAMIYATI

Samadov Vohid Tolibovich

*Buxoro davlat pedagogika instituti
harbiy ta'lim fakulteti o'qituvchisi*

Annotatsiya. Ushbu maqolada "Temur tuzuklari" tamoyillari asosida talabalarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, e'tiqod, odamlarga ishonish, qonunga itoat qilish, maslahatlarni tinglash, halol mehnat, adolatli bo'lish, kichiklarni izzat, kattalarni hurmat qilish, shijoatli va xalqparvar bo'lish haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: "Temur tuzuklari", tarix, ajdodlar, vatan, yoshlar, ta'lim, tarbiya.

Аннотация. В данной статье на основе принципов «Законов Темура» воспитываются учащиеся в духе патриотизма, веры, доверчивости к людям, законопослушания, прислушивания к советам, честного труда, справедливости, почитания младших, уважения старейшины, будучи мужественными, считались человеколюбцами.

Ключевые слова: история, предки, родина, молодежь, образование, воспитание.

Annotation: In this article, on the basis of the principles of Temur's Laws, students are brought up in the spirit of patriotism, faith, trust in people, law abidance, listening to advice, honest work, justice, honoring the younger, respect for the elder, being courageous, were considered philanthropists.

Keywords: "Rules of Temur", history, ancestors, motherland, youth, education, upbringing.

Yosh avlodni ma'naviy-axloqiy va vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda Amir Temur va	temuriylar davrida yashab ijod etgan mutafakkirlarning faoliyati katta ahamiyat kasb etadi. Ular qoldirgan
--	--

ma'naviy meros necha-necha avlodlarni ma'naviy-axloqiy kamolotga da'vat etib, yuksak vatanparvarlik ruhida tarbiyalab kelmoqda. O'sha davr allomalarining axloq-odob va estetika borasidagi dono fikrlari madaniyatimizni yanada ravnaq toptirishda, yoshlarning ma'naviy dunyosini boyitishda, ularni yuksak axloqiy fazilatlar ruhida tarbiyalashda muhim ahamiyatga egadir. Shunday ekan, bugun Qurolli kuchlarimiz saflarida xizmat qilayotgan harbiy xizmatchilarimiz ajdodlarimizning mana shunday boy ma'naviy merosidan oziqlanishsa, o'zlarining ma'naviy, axloqiy va intellektual sifatlarini shakllantirishsa, maqsadga muvofiq bo'ladi.

Amir Temur bilan suhbatlashish sharafiga muyassar bo'lgan buyuk arab faylasufi Ibn Xaldun jahongir turk, arab, fors xalqlari tarixining, diniy, dunyoviy va falsafiy bilimlarning murakkab jihatlarigacha yaxshi o'zlashtirganini ta'kidlaydi. Amir Temur harbiy sohada jahonga mashhur sarkarda va o'z zamonasining eng qudratli hukmdori bo'lish bilan birga, uning harbiy nazariyasi va amaliy harbiy san'ati, taktika va strategiyasi, armiya tarkibining tuzilishiga ko'ra o'z davrining nodir mo'jizasi edi. Sohibqiron tomonidan Movarounnahrda markazlashgan va qudratli davlat barpo etilishi hamda bu yerda tinchlik, osoyishtalikning ta'minlanishi bunga asosdir.

Amir Temur ilm-fan, ma'naviyat ahliga e'tibor, mehribonlik ko'rsatib, ulardan jamiyat madaniy hayotida foydalanishga intilar ekan, tarixchi Ibn Arabshoh yozganidek, «Temur olimlarga mehribon, sayyid-u shariflarni o'ziga yaqin tutar edi. Ularning har birini o'z martabasiga qo'yib, izzat-ikromini unga izhor qilar edi».

Sohibqironning ma'naviy-axloqiy va vatanparvarlik qarashlari uning «Temur tuzuklari»da mujassamlangan. Mazkur asarda Temurning jamiyatga, ijtimoiy-siyosiy hayotga qarashi, davlatning siyosiy va axloqiy tamoyillari ifodalangan. Amir Temur davlatni boshqarishda o'zi uchun asosiy yo'nalishlar deb, din va shariatni oladi: «yana tajribamda ko'rib bildimki, davlat agar din (qoida, rasm, tartib, odat, ravish, tarzi) asosida ko'rilmay ekan, unday saltanatning obro'si, qudrati va tartibi yo'qoladi.

Bunday saltanat yalang'och odamga o'xshar ekan, uni ko'rgan har kimsa undan nazarini olib qochadi, yoxud kasu-nokas tap tortmay kirib chiqadigan tomsiz, eshigi, tuynugi yo'q uyga o'xshaydi». Buyuk davlatga asos solgan Amir Temurning sarkardalik san'atini, lashkarboshilarni qanday tanlagani va rag'batlan-tirganini o'rganish, bizningcha, muhim masaladir. Chunki, ulug' amirning «Davlat-u saltanat uch narsa — mulk, xazina va lashkar bilan

tirikdir», deb aytgan hikmatli so'zlari bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Sohibqiron harbiylikka olinadigan kishidagi sergaklik, xushyorlik va tadbirkorlikni oldingi o'ringa qo'ydi. U aytadiki, «ishbilarmon, mard va shijoatli sohib, azmi qat'iy tadbirkor va hushyor bir kishi, ming-ming tadbirsiz, loqayd kishilardan yaxshidir». U shunday degan: «Cherik tuzib, navkar olmoqda uch qoidaga amal qildim: birinchidan — yigitning kuch-quvvatiga, ikkinchidan — qilichni o'ynata olishiga, uchinchidan aql-zakovatiyu, kamolotiga e'tibor berdim. Shu uch sifat jamuljam bo'lgandagina navkarlik xizmatiga oldim. Negaki, kuch-quvvatli yigit har qanday qiyinchiliklarga, azob-uqubatlarga chidamli bo'ladi, qilich o'ynata oladigan kishi raqibini mag'lub eta oladi, oqil navkar har joyda aql-idrokini ishga solib, mushkulotni bartaraf etmog'i mumkin».

U kishilardagi, jumladan, navkarlaridagi vafodorlik va sadoqatni qadrlay bildi. Bevafo va sadoqatsiz sipohiylarni saltanatiga yaqinlashtirmadi.

«Men bilan ittifoqi buzilgan amirlarni birma-bir xoli joyga chaqirtirib, har qaysisi bilan alohida gaplashdim. Mol-dunyo-ga xirs qo'ygan ojiz va ta'magirlarga mol-dunyo va'da qildik, mansab-martabaga va mamlakatlarni boshqarishga ko'z tikkan amalparastlarga qo'lim ostidagi mamlakat va viloyatlardan

birining hokimligini berdim. Ularning hammasini umid va qo'rqinch orasida saqladim. Qolgan sipohiylarni ham yemak-ichmak va kiyim-kechak umidi, shirin so'z va ochiq chehra bilan o'zimga rom qildim. Bir xizmatini o'n barobar qilib taqdirlab, dilini xushnud etdim. Natijada meni qo'llab-quvvatladilar va atrofimda birlashdilar. Har ishda birlik — ittifoqlikni qo'ldan bermaslikka, amrimdan chiqmaslikka va'da berib, men uchun mol-u jonlarini ayamay, jang maydonida jonbozlik qilishga ahd qildilar».

«Yo'l ustida kuzatuvchilar, zobitlar bilsinlarki, yo'llarni qo'riqlab, yo'lovchilar, savdogarlar, musofirlarni kuzatib, mol-mulki va boshqa narsalarini biri manzildan ikkinchi manzilga yetkazib qo'ysinlar. Yo'l ustida birontasining narsasi yo'qolsa, o'zi o'ldirilsa yoki boshqa kor-hol yuz bersa, bular uchun javobgarlik ularning zimmasida bo'lsin.

Amir Temur millatimiz tarixida munosib o'rin egallaydi. U yoshligidan xat-savod chiqarib, o'z davrining tibbiyot, riyoziyot, falakiyot, me'morchilik va tarix ilmlarini o'rgangan. O'g'ri va qaroqchilar qayerda qo'lga olinmasin, yaso (qonun) asosida jazolansinlar. Agar birontasi birovning mol-mulkini kuch ishlatib tortib olgan bo'lsa, uni olib o'z egalariga topshirsinlar. Kimdir birovning tishini urib sindirgan

bo'lsa yoki ichkilik ichgan bo'lsa, jazo berish uchun shariat qozisi huzuriga olib borsinlar». Amir Temur saroyida ko'plab ilm-ma'rifat allomalari sohibqironning marhamatidan bahra olib, uning xizmatida bo'ldilar.

Sohibqironning riyoziyot, handasa, me'morchilik falakiyot, adabiyot, tarix, musiqa sohalari ravnaqiga katta e'tibor berib, sohibi hunarlar bilan qilgan suhbatlari haqida fransuz olimi Lyangle shunday yozadi: «Temur olimlarga iltifotli edi. Bilimdonligi bilan bir qatorda sofdilligini ko'rgan kishilarga ishonch bildirardi. U tarixchilar, faylasuflar, shuningdek, ilm-fan, idora va boshqa ishlarda iste'dodli bo'lgan barcha kishilar bilan suhbatlashish uchun ko'pincha taxtdan tushib, ularning yoniga kelardi. Chunki, Temur bu sohalarga g'amxo'rlik qilishga asosiy e'tiborini berardi».

Ulug' amir har ishda insoniy, axloqiy fazilatlarni, kuchli iymonni birinchi o'ringa qo'ygan. Sohibqiron Amir Temur davrida Markaziy Osiyoning mustaqil bir davlat ostiga birlashtirilishi, shubhasiz, mamlakatning iqtisodiy va madaniy taraqqiyotiga ulkan ta'sir ko'rsatdi, ilm-fan, adabiyot va san'at, hunarmandchilik va me'morchilik ravnaq topdi.

Buning uchun Movarounnahrning hamma joylaridan, yaqin va O'rta Sharq o'lkalaridan, tobe mamlakatlardan juda ko'p fan va san'at ahllarini,

iste'dodli sohibi hunarlarni, me'mor va musavvirlarni poytaxtga to'pladi. Bu — Sohibqironning estetik didi juda baland bo'lganligidan dalolatdir.

Buyuk Sohibqironning axloqiy-estetik qarashlari, amaliy faoliyati bugun ham o'z ahamiyatini yo'qotgani yo'q, aksincha, vaqt o'tishi bilan yanada mazmunga boyib bormoqda. o'rta asr Sharqida axloq fanining rivojiga katta hissa qo'shgan mutafakkir Jaloliddin Davoniy (1427—1502 y.y.)dir. U axloq fanining predmeti va vazifalarini belgilashda Arastu ta'sirida bo'ladi. Axloq fani deganda, mutafakkir kishilarning xulq-odobi va fazilatlarini o'rganuvchi fanni tushunadi. Ushbu fan amaliy xarakterga ega bo'lib, u kishilarning kundalik hayotida asosiy qo'llanma bo'lib xizmat qilishi lozim.

Amir Temurning qarashlari o'ziga xos intilish va tajribaning hosilasidir. U avvalo aql bilan ish tutishga va bu borada o'zgalardan o'rganishga katta e'tibor bergan. Tarixchi Nizomiddin Shomiyning (XIV asr) keltirishicha, Amir Temurning bir majlisda olimlarga qarata shunday degan: "O'tgan asrlardagi olimlar sultonlarga yaxshilik va adolat bobida yo'l ko'rsatganlar, sizdan nega menga rahnamolik qilmaysizlar va men bajarishim vojib hamda nozil bo'lgan narsalarni menga aytmayizlar. Menga tahsin aytish va mening mijozimga muvofiq gapirishingiz menga xush kelmaydi,

vazifa shuki, sizlar har toifa va har tomondan kelgansizlar, u tomonlarning yaxshi yoxud yomon ahvoli avzoyini menga aytinglar va hech nimani mendan yashirmanglar. Men bu so'zlarni sizlar menga ishonch bildiringlar yoki undan mening mulkinga biror foyda yetsin, deb aytayotganim yo'q, shahar ahliga ma'lumdirki, hazirati Parvardigor bizga bergan bu shavkat va ulug'lik bunga o'xshash tafakkurlarga ehtiyojmand emas, maqsadim Ollohning rizosini hosil qilishdir"⁶. Bunday fikrga ega bo'lgan shaxs muhim pedagogik g'oyalarga ham ega bo'lishi tabiiydir. Negaki pedagogik g'oyalar shaxs kamolotini ta'minlovchi omil sifatida uning keyingi hayoti va faoliyatida muhim o'rin tutadi. Amir Temurning mazkur fikrlari uning o'z vaqtida munosib ta'lim va tarbiya olganligidan dalolat beradi. Aks holda, u har bir hudud uchun fidoyilik qilmasdi. E'tibor berilsa, bu fikrlar davlat a'yonlari jam bo'lgan yig'ilishda aytilmoqda. Bu bilan sahibqiron quyidagilarni nazarda tutgan: birinchidan, mamlakatning har bir hududini taraqqiy ettirish; ikkinchidan, fuqarolar ishonchini qazonish va ularga madad berish; uchinchidan, sog'lom fikrli kishilarni yurt obodligiga da'vat qilish; to'rtinchidan, o'z faoliyatini

bunyodkorlikka bag'ishlash. Shu ma'noda kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, Amir Temur qarashlarida o'z ifodasini topgan pedagogik g'oyalarni shartli ravishda ikki turga bo'lish mumkin:

- 1) Ta'limiy g'oyalar;
- 2) Tarbiyaviy g'oyalar.

Amir Temurning ta'limiy g'oyalarida shaxsning ongini to'g'ri shakillantirish hamda vatanparvarlik alohida o'rin tutadi. Buning uchun u shaxsda "o'ziga ishonch uyg'otish" tamoyiliga amal qilgan.

Unga ko'ra, shaxs o'z layoqati, imkoniyati va shijoatiga ishonishi kerak, shunda u bilim olish, bilmagan narsalarini o'qib - o'rganish va o'z oldiga yuksak maqsadlar qo'yishga intiladi. Layoqat har bir kishi tabiatida mavjud bo'ladi, faqat u rivojlantirilishi kerak; imkoniyatni shaxs o'z intilishi va harakati bilan yaratadi; shijoat esa maqsad-muddaoning hosilasidir. Amir Temurning fikricha o'qub-o'rganishga intilgan kishiga "shirinso'z va ochiq yuz bilan" munosabatda bo'lishi kerak Bunday munosabat albatta shaxsning o'ziga bo'lgan ishonchini orttiradi, unga ruh beradi. Sahibqironning fikricha, yana shaxs o'z maqsadiga erishish uchun o'n ikki narsaga qat'iy amal qilishi kerak, bular: ⁷

⁶ Шомий Низомиддин. "Зафарнома"- Т.: Ўзбекистон. 1996.

⁷ Амир Темур ўғитлари. –Т.: Ўзбекистон. 2007.

- 1) E'tiqod;
- 2) Odamlarga ishonish;
- 3) Qonunga itoat qilish;
- 4) Maslahatlarni tinglash;
- 5) Halol mehnat;
- 6) Adolatli bo'lish;
- 7) Kichiklarni izzat, kattalarni hurmat qilish;
- 8) Shijoatli bo'lish;
- 9) Xalqparvar bo'lish;
- 10) Yaxshilikka intilish;
- 11) Do'st tutish;
- 12) Molparast bo'lmaslik.

Albatta, bularga amal qilgan kishining aqlli shaxs sifatida voyaga yetkazishga kafolat bor. Negaki e'tiqod kishining tafakkurini charxlaydi, odamlarga ishonish o'ziga bo'lgan ishonchini orttiradi,

qonunga itoat qilish faoliyat samaradorligini oshiradi, maslahatlarni tinglash to'g'ri va sog'lom harakat qilish garovidir, halol mehnat shaxsning o'zligini mustahkamlaydi, adolatli bo'lish yuksak axloqiylikka asos bo'ladi, Biroq, asosiy masala ularga amal qilishdadir. Misol uchun, o'zgalarni do'st deb bilishni olaylik. Buning uchun kishining bag'ri keng va fikr-u o'ylari pokiza bo'lishi kerak. "Kim menga,-deydi Amir Temur, - do'stlik qilsa qadrladim, unitmadim va muruvvat, ehson, izzat – ikrom ko'rsatdim"⁸. Demak, bunday yo'l tutish shaxsni aqliy va ma'naviy jihatdan ulg'aytiradi, uning ongini, fikr-u o'ylarini to'g'ri yo'naltiradi

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Olimov, T. The role of national spirituality and values in the development of civil culture in future specialists with higher education.
2. Olimov, T. (2020). Bo'lajak oliy ma'lumotli mutaxassislarda fuqarolik madaniyatini shakllantirishning ayrim yo'nalishlari. Integration of science, education and practice. Scientific-methodical journal, 1(1), 20-27.
3. Olimov, T. H. (2016). Formation of self-awareness in youth. Social and humanitarian sciences in the educational system.-Tashkent, 4.
4. Olimov, T. H. (2019). Spiritual and moral aspects of the formation of civil culture in future specialists of higher education. Theoretical & Applied Science, (12), 662-665.
5. Olimov, T. H. (2019). Development issues of civil society and culture in the work of Eastern thinkers. Pedagogical skill-Bukhara, 2.
6. Olimov, T. H. (2020). The image of a modern teacher in the formation of civic culture among future highly educated specialists. Pedagogical skill-Bukhara

⁸ Амир Темур ўғитлари. –Т.: Ўзбекистон. 2007.